



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari

Azimova Umida Latipovna Buxoro shahar 20- umumta'lim
maktabi oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mantiqiy va teran fikrlash bamisoli aqlga o'rnashgan po'lat mixdek, ularni sug'urib bo'lmaydi.

D. Didro



Mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushuncha. Mantiqiy fikr yuritish qobiliyati barcha sog'lom insonlarga xosdir. Bolaning bilish faoliyati uchun mantiqiy fikrlash muhim xarakterga ega.

Fikrlash – insonning aniq dalillarni kuzatib, umumiy xulosa chiqarishga intilish, voqea-hodisalarning sabablarini aniqlash va kelajakni oldindan ko‘ra bilishdan boshlanadi.



Fikrlash jarayonlari quyidagicha:

- 1. Avvalo hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlab olinadi. Chunki muammo bo'lmasa odam hech narsa haqida o'ylamaydi. Hal etilishi lozim bo'lgan masalani yechish uchun uning mohiyatini to'la tushunish, masala shartlarini tahlil qilish, nima berilgan va nimani topish kerakligi haqida mulohaza yuritiladi.
- 2. Topshiriqni yechish uchun zarur bo'lgan bilimlar (qoida, dalil, qonun, teorema, ta'rif) ishga solinadi.
- 3. Taxminlar o'rtaga tashlanadi, taxminlardan eng to'g'risi tanlab olinadi.
- 4. Topshiriq bajariladi, natija tekshiriladi.





Topshiriqlarni yechish, mulohaza yuritish orqali o'quvchilar dunyoqarashida o'ziga xos xususiyatlar takomillashadi, ya'ni fikrning chuqurligi, kengligi, o'tkirligi, tanqidiyligi, fikrlash tezligining ortishi tufayli mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish – asosiy vazifa



Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri – ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich ta'limning o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, bolalar maktabga ta'lim olish uchun turli tayyorgarlik darajasida, har xil ijtimoiy tajribaga ega bo'lgan holda, hamda turlicha psixologik va fiziologik holatda kirib kelishadi.

O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad




- O'quvchilardagi mehnatsevarlik, maqsadga erishishda tirishqoqlik kabi shaxsiy-axloqiy xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi;
- Boshlang'ich sinf o'quvchisida XXI asr ko'nikmalari (4K elementlari) shakllanadi;
- Taqqoslashga o'rgatadi, fikr doirasini kengaytirishda yordam beradi;
- Kuzatishga doir tajribalarni to'plashda;
- Murakkab bo'lmagan qonuniyatlarni aniqlashda;
- Isbot talab etadigan farazlarni o'rtaga tashlashda;
- Mulohazaning boshlang'ich savodini egallashda;
- Kompleksli ta'lim jarayonini amalga oshirishda ahamiyati kattadir.

Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning zarur shart-sharoitlari

- O'quvchilarni mantiqiy bilim olishga bo'lgan doimiy qiziqishlarini shakllantirish va ta'minlash;
- Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turg'un yo'nalishning mavjudligi;
- Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda bolaning individual va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish;
- Mashg'ulotlar mazmuni va shakllarining o'zgaruvchan bo'lishini ta'minlash;
- O'qituvchida bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maqsadning mavjudligi;

Motivatsiya muvaffaqiyat garovidir

O'qituvchi o'quvchilarni u yoki bu mantiqiy topshiriqni bajarishni o'rganishlari zarurligiga nafaqat ishontirishi, balki umumlashtirish, analiz, sintez va boshqa mantiqiy amallarni bajarishda rag'batlantirishi, ishtiyoqlarini kuchaytirishi, bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishi lozim.



MANTIQUIY FIKRLASHNING RIVOJLANISHI BOLADA QANDAY KO'NIKMALARNI VUJUDGA KELTIRADI?


- 1. Kuzatuvchanlik ko'nikmasi: imkoniyatlar, muammolar va yechimlarni sezish va bashorat qilish qobiliyati;
- 2. Tahlil: ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni tushunish, talqin qilish ko'nikmasi;
- 3. Xulosa qila olish ko'nikmasi: tegishli ma'lumotlar, shaxsiy bilim va tajribaga asoslangan xulosalar chiqarish;
- 4. Aloqa: boshqalar bilan og'zaki ravishda, og'zaki va yozma ravishda ma'lumot almashish va qabul qilish ko'nikmasi;
- 5. Muammolarni hal qilish: yechimlarni aniqlash va bartaraf etish uchun ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va yetkazish ko'nikmasi;
- 6. Kreativlik: o'ziga xos yangi g'oyalarni yaratish, o'zgacha fikrlash va muammolarga noan'anaviy yondashish ko'nikmasi.

KUTILADIGAN NATIJA

- Tasavvur koʻlami kengayib, fanga boʻlgan qiziquvchanligi ortadi;
- Oʻz variantlarini ilgari sura oladi;
- Yangi usullar va yechimlarni topa oladi;
- Bashorat qila olish va tavakkalchilik koʻnikmasi shakllanadi;
- Oʻquvchilar vaziyatni tezda baholay olish va hozirjavob boʻlish koʻnikmalariga ega boʻlib boradi;
- Oʻquvchida oʻzgalar fikrini tinglay olish koʻnikmasini hosil boʻladi;
- Oʻquvchi oʻz fikrini himoya qila oladi;
- Bildirilgan fikrlarni tahlil qilish va umumlashtirish koʻnikmasi paydo boʻladi;
- Mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish koʻnikmasi rivojlanadi;



MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TOPSHIRIQLAR





“Sirli narvon” metodi




“Tengini top” metodi

$\frac{2}{1}$ ga teng boʻlgan sonlarni qizil rangli,
 $\frac{3}{1}$ ga teng boʻlgan sonlarni sariq rangli,
 $\frac{5}{1}$ ga teng boʻlgan sonlarni yashil rangli
diagrammalarda tasvirlang.



“Rangsiz kamalak” metodi



O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan, xotirani mustahkamlash, fanlararo bog'lanish-integratsiyaga asoslangan metod. Bu topshiriqda 7 ta savol berilib, kamalakning ranglarini topib bo'yashga qaratilgan bo'ladi. Bunda berilgan 7 ta savolni 7 xil rang ichida yozilgan javoblar bilan moslashtirish orqali kamalakning ranglari aniqlanadi va yuqoridan pastga qarab yoki pastdan yuqoriga qarab berilgan tartib asosida kamalak bo'yaladi.

Eslatma:

“O‘quvchiga yodlashni emas, fikrlashni o‘rgatishimiz kerak”




“Rangsiz kamalak”
metodini o‘quvchilarning
yoshiga, bilim salohiyatiga
mos holda o‘zgartirib tuzish
mumkin



3- 4- sinf o‘quvchilarini **PIRLS**
tadqiqotlariga tayyorlashda
foydalanish uchun “Tog‘lar qanday
paydo bo‘ladi” ilmiy matni asosida
“Rangsiz kamalak” metodi

“Rangsiz kamalak” metodi. Ma’lumotlarni moslashtiring va kamalakni tartib raqami asosida bo‘yang



Lava

Tog‘

Vulqon

Qatlam

Yuksak

Hayratlanish

Burmalar

3. Yer po‘stidagi yoriqlar orqali lava, issiq gaz, suv bug‘lari va jins bo‘laklari otilib chiqishi

5. Juda katta, ulkan

2. Dengiz sathidan baland yerning toshlardan iborat ko‘tarilgan joyi

1. Yer yoriqlaridan otilib chiqadigan olovsimon suyuq va qovushqoq modda


6. Hayron bo‘lish, qoyil qolish

4. Yerning ichki va tashqi tuzilishini tashkil qiladi


7. Yer qatlami siljishi natijasida vujudga keladi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga doir topshiriqlar

- 45 sonini shunday 4 qismga ajratingki, agar birinchi sondan 2 ni ayirsak, ikkinchi songa 2 ni qo'shsak, uchinchi sonni 2 ga ko'paytirsak, to'rtinchi sonni 2 ga bo'lsak bir xil son kelib chiqsin. Ushbu sonlarni toping.



“Zehningni charxla” metodi



1	54	26	43	12	56	60	67
30	18	12	65	24	40	24	16
37	32	15	34	20	78	45	76
90	87	11	33	44	23	21	98
32	33	65	21	6	17	17	34
48	3	40	89	38	59	30	23

Bu o‘yin shartlarini o‘quvchi yoshiga qarab murakkablashtirish mumkin

“Chiqish yo‘lini top” metodi



ODDIY MATEMATIK LABIRINT

QO'SHISH
yig'indi **7**

Yig'indisi 7 ga teng bo'lgan doirachalar orqali labirintdan o'ting

Kirish →

0+7	4+3	2+0	2+5	1+6	0+7	1+6	2+6	0+5	2+2
0+9	6+1	7+0	3+4	3+0	3+7	0+7	2+5	4+3	5+2
3+3	4+0	5+0	0+1	6+2	1+0	6+4	0+8	1+4	7+0
2+5	1+6	5+2	0+7	6+1	7+1	4+4	8+1	1+8	3+4
3+4	1+3	2+4	8+2	7+0	4+1	0+2	1+2	5+5	6+1
0+7	5+3	2+1	9+0	5+2	7+3	10+0	3+6	4+1	5+2
5+2	4+3	6+1	3+1	3+4	1+1	2+3	9+1	4+6	2+5
4+5	1+7	7+0	0+10	2+5	0+7	1+6	5+2	7+0	4+3
2+8	0+4	1+6	2+7	6+0	8+0	1+1	3+6	3+2	5+1
6+3	3+5	3+4	5+2	4+3	0+3	7+0	2+5	0+7	0+6
1+5	4+2	5+4	7+2	6+1	3+4	6+1	1+9	4+3	1+6

Chiqish →

MT



- Rustam 6 ta son o'yladi. Keyin ularni 2 tadan 3 bo'lakka shunday ajratdiki, ularni qo'shsa 3 tasining ham javobi bir xil chiqadi.
- Keyin bu sonlarning 5 tasini doskaga yozdi. Siz esa 6-sini toping.

“So‘z - tasma” metodi

Bu usul ko‘rilayotgan masalani turli tomondan, bosqichma bosqich, tanqidiy va tahliliy tarzda o‘rganish imkoniyatini beradi. Berilgan topshiriqlarni bajarib matn tuzish BKMLari rivojlantiriladi. “So‘z-tasma” metodining har qatori muayyan topshiriqni ifodalaydi.

1-qadam: ko‘rayotgan so‘zga yozma ravishda ta’rif bering.

2-qadam: uning afzallik tomonlarini sanab bering.

3-qadam: berilgan so‘zga oid qanday salbiy jihatlarni bilasiz, fikringizni izohlang.

4-qadam: kundalik hayotda shu narsa bilan bog‘liq qanday muammolarni eshitgansiz yoki ko‘rgansiz? Aniq faktlar bilan yozing.

5-qadam: muammoni qanday bartaraf etish mumkin. O‘z fikringizni bayon eting.

Ta’rif

Afzalligi

**Salbiy
jihatlari**

**Muammoli
tomoni**

**Amaliy
yechim**

Soʻz - kompyuter

Taʼrif

Bugungi kunda insonning eng yaqin yordamchisi

Afzalligi

Barcha ishlarda qoʻl keluvchi serqirra texnika

Salbiy jihatlari

Koʻz nuri va sogʻliqqa zarar keltiradi

Muammoli tomoni


Kitobdan koʻra kompyuterning tanlanayotganligi

Amaliy yechim


Kompyuterdan foydalanishda meʼyorga amal qilish

“Buzuq tarozi” metodi

- Soʻzlarning sinonimini topib moslashtiring



?




■ “Unlilar qayerda?” metodi



K*t*bn* y*r*g'l*k ch*p t*m*nd*n
t*sh*d*g*n j*yd* *q*ng. *n* k*zg* y*q*n
*shl*b *q*m*ng. K*z*ng*z t*l*q*d* . K*t*b
*q*y*tg*nd* *n* g'*j*ml*m*ng. K*t*bn*
b*kl*sh y*r*m*yd*

“Uchqur zehn egasi” metodi

Bu metodda bolalardan tezkorlik bilan 1 dan 20 gacha bo‘lgan sonlarni topib, qo‘llari bilan ko‘rsatishlari talab etiladi. Metoddan musobaqa tarzida foydalanish juda ham samarali bo‘ladi.



“Begona so‘z” usuli

Namuna

Bu usul uchun “O‘qish savodxonligi kitobi”da berilgan biror bir she‘r yoki matn asos qilib olinadi. O‘quvchilardan berilgan vaqt ichida jadvalda berilgan 4 ta so‘zdan matn yoki she‘rda uchramaydigan so‘z yoki so‘zlarni topishni talab qilinadi.

“Non isi” Rivoyat

Alisher

jamiki


ketmon

xushbo‘y

Begona so‘z: ketmon




■ Qaysi shaklning qirrasi ko'p?





1	2	3		5			8		
11			14		16	17		19	20
21		23		25	26		28		30
31	32		34	35		37		39	40
41	42	43			46			49	50

MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TOPSHIRIQLAR

Shaklda nechta kvadrat yashiringan?



100%



MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGLARGA TAVSIYALAR

Ishning maqsad va vazifalarini belgilab oling, tushuning va tushuntiring;

- Bilish jarayonining analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va qiyoslash kabi ko‘rinish va shakllarni qo‘llang;
- Har bir so‘z, gap, tushunchani to‘liq ochib bering;
- Jamoa bo‘lib, guruh bo‘lib, bir-birini o‘qitishga erishing;
- Har bir narsadan asosiysini topishga o‘rgating;
- Har bir bolaning individual xususiyatlarini biling, shunga mos o‘qiting, muomalada bo‘ling;
- O‘ylashga, fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgating.
- Ijodiy tafakkurni oshiruvchi mashqlarni ko‘proq qo‘llang;
- Materialni tushunarli qilib, bayon qiling, ko‘rsatmalilik hamda ta‘limning texnik vositalaridan foydalaning;
- Har doim o‘quvchiga motivatsiya berib, o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttirishga harakat qiling.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

www.trm.uz/uz

https://t.me/trm_uz

<https://www.facebook.com/trmuz>
